

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

"RO'YXATGA OLINDI"

№ VM-343-53406-4.04

"1" iyul 2003 y.

"TASDIQLANDI"

O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus

ta'lim vazirligi

"8" iyul 2003 y.

**ChET MAMLAKATLAR MOLIIYaSI
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"
ta'lim sohasidagi 5340600 - "Moliya"
bakalavriat yo'nalishi uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchilar: dots. Burxanov U.,
dots. Jumaev N.

Taqrizchilar: prof. Vahobov A. V.,
dots. Haydarov N. X.

Dastur chet mamlakatlar moliya tizimi va ularda moliya munosabatlarini tashkil etish va boshqarishning asosiy shakllarini qamrab olgan bo'lib, bakalavriatning "Biznes va boshqaruv" sohasi "Moliya" yo'nalishidagi talabalariga mo'ljallab tuzilgan. Unda ma'ruza, amaliy (seminar) mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim mavzulari va o'rganiladigan savollar, shu jumladan, kator rivojlangan davlatlarning moliya tizimi taraqqiyoti muammolari o'z aksini topgan. Dasturda fanni o'rganishga oid o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, iqtisodiy gazeta va jurnallar ro'yxati berilgan. Dasturda shu bilan birga tegishli mavzularga oid kompyuter o'quv dasturlari, internet tarmog'i saytlari ro'yxati ilova qilingan.

Данная программа составлена для студентов сферы "Бизнес и управление" бакалавриата по направлению "Финансы" и включает в себя изучение проблем финансовых систем зарубежных стран, основные формы и методы организации и управления финансовых отношений в этих странах. В нем нашли отражение темы лекционных, практических (семинарских) занятий, такие как, современные проблемы развития финансовой системы зарубежных стран, ее звеньев и т.д. В программе приведен список основной и дополнительной литературы на узбекском, русском и на английском языках, источники материалов из экономических журналов и газет. Вместе с тем программе приложена перечень компьютерных программ, сайтов сети интернета по соответствующим темам учебного курса.

Program includes the most important theme reflecting the main point of general forms of the International Economic Relations and is worked out considering all special ties end directions of baccalaureate in sphere of "Business and Management". lecture themes, practical studies, seminars and self – educated questions including questions of foreign economic policy and foreign economic affairs of the Republic of Uzbekistan are observed in it.

Program consist of list of main and additional literature, economic news – papers and margarines, including also necessary English literature. As an appendices presented list of computer educational programs, internet web – sites and electronic training aids.

Dastur Toshkent moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsia etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

Fanni o'qitishning maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanishi

"Chet mamlakatlar moliyasi" fanini o'qitishning maqsadi - kelgusida yuqori malakali iqtisodchi-mutaxassislar bo'lib etishadigan talabalar uchun chet mamlakatlar va uning tuzilishi haqida nazariy bilimlar berish, ularda davlatning hozirgi davrdagi moliya siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha asosiy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib fan o'z predmetini o'rgatish uchun quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- moliyaning tizimining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini o'rganish;
- moliyani boshqarishning tashkiliy asoslarini o'rganish;
- mikro va makro darajada moliyaning amal qilishini o'rganish;
- chet davlatlar byudjeti daromadlari va tarkibini o'rganish;
- byudjet kamomadining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va uni pasaytirish imkoniyatlarini yoritish;
- jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida moliyaning ahamiyati, uni tahlil qilish.

"Chet mamlakatlar moliyasi" fanini o'rganish uchun "Iqtisodiyot nazariyasi", "Moliya", "Korxonalar moliyasi", "Soliq va solikka tortish", "Sug'urta", "Davlat byudjeti" kabi fanlarda olingan bilimlar muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga "Chet mamlakatlar moliyasi" fani qator maxsus fanlar, jumladan, "Mahalliy byudjetlarni shakllantirish va boshqarish", "Nobyudjet fondlar", "Xalqaro moliya munosabatlari", "Moliya bozori", "Moliya menejmenti", "Qimmatli qog'ozlar bozori va birja ishi" va h.k. fanlar uchun muhim nazariy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Oliy ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi davlat ta'lim standartiga (DTSga) muvofiq ravishda o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalariga talablar

Ushbu fanni o'rganish jarayonida talabalar tegishli bilimga, uquvga va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Talabalar umumnazariy fanlardan olgan bilimlari

bilan bir qatorda xalqaro moliyaviy qonunchilik, ommaviy-axborot vositalari orqali xalqaro miqyosdagi kundalik moliyaviy o'zgarishlardan xabardor bo'lishlari lozim. Mazkur fanning asosiy g'oyalarini to'la va muvaffaqiyatli o'rganish uchun talabalar xalqaro moliya amaliyotida mavjud iqtisodiy tahlil, moliyaviy rejalashtirish usullaridan foydalana bilishlari lozim.

"Chet mamlakatlar moliyasi"fanidan olingan bilimlar talabalarni oliy o'quv yurtini tamomlagandan so'ng, xalqaro moliya amaliyotiga oid kundalik faoliyatda uchraydigan dolzarb amaliy masalalarni echishda hamda xalqaro moliya munosabatlariga doir adabiyotlarni o'rganib, malakalarini oshirishlarida qo'l keladi.

Amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlar minimal miqdoriga talablar

Ishchi o'quv dasturida keltirilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha talabalar tegishli mavzular bo'yicha konspektlar oladi, referatlar va mustaqil ishlar tayyorlaydi hamda amaliyot o'qituvchisi nazoratida ular yuzasidan og'zaki suhbatdan o'tadi. Ushbu talablar amaliy mashg'ulotlar mavzularida kursiv bilan ko'rsatilgan savollar bo'yicha talabalarning to'liq o'zlashtirishlarini belgilaydi.

Auditoriya mashg'uloti turlarining soatlar hajmi (foizlarda) bo'yicha tavsiyalar

Oliy kasbiy ta'limning davlat standartlarida mazkur kursga 75, shu jumladan 30 - ma'ruza, 20 - amaliy mashg'ulotlar va 25 mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan. Ushbu fan bo'yicha darslarni tashkil etish VIII semestrga mo'ljallangan.

Talabalar bilimni baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori

Ushbu fan bo'yicha talabalarning o'zlashtirish darajasini baholash o'quv reyting tizimi bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy baholashlar davomida yig'ilgan ballar asosida amalga oshiriladi.

Fanni o'qitishda bir semestr davomida ikki marotaba joriy (seminar mashg'ulotlarida), ikki marotaba oraliq (ma'ruza mashg'ulotlarida) va bir marotaba yakuniy baholash (yozma ish usulida) amalga oshiriladi.

Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash

Ushbu fanni o'qitish jarayonida yangi texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini quyidagilar bilan asoslash mumkin:

- tegishli o'quv maqsadlarini ishlab chiqish texnologiyasining mavjudligi;
- to'la o'zlashtirish texnologiyasining ko'zda tutilganligi;

- o'quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga o'tkazish texnologiyasi mavjudligi;
- test topshiriqlarining invariantligi metodologiyasi va nazariyasidan foydalanilishi;
- haqiqatni imitatsion modellashtirish asoslaridan foydalanilishi;
- tayanch iboralarga asoslangan yozma ish orqali nazorat ishlarini o'tkazish tizimidan foydalanilishi.

Bu fanni o'qitishda moliya sohasiga tegishli qonunlar, hukumat qarorlari, moliyaviy hisob-kitoblarning avtomatlashtirilgan tizimi ("Moliya" AIJ) dasturi, nizomlar va moliyaviy loyihalarni baholashning YuNIDO va "Projestexpert" kompyuter dasturlaridan, yangi kompyuter texnologiyalaridan, tarqatma materiallardan, testlar to'plamidan ham foydalanish mumkin.

Ishchi dasturni tuzishga oid uslubiy tavsiyalar

Mazkur fan "Moliya", "Kasb ta'limi" bakalavr ta'lim yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislariga tegishli tarzda 8-semestrda o'tilishi mo'ljallangan.

Ushbu fan bo'yicha ishchi dasturlarini tuzishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- Ishchi dasturda fan bo'yicha bakalavriat bosqichining tegishli yo'nalishlari bo'yicha tasdiqlangan o'quv rejasiga muvofiq ajratilgan soatlar hisobga olinishi zarur;
- Ishchi dasturida har bir mavzuga oid huquqiy-me'yoriy xujjatlar hamda tegishli moliyaviy qonunchilik asosidagi yangi talab va o'zgarishlar talabalar e'tiborini jalb etuvchi tarzda berilishi kerak;
- Ishchi dasturda mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular va savollar ajratilib ko'rsatilishi zarur;
- Ishchi dasturda o'qitishning ilg'or texnologiyalari, dasturiy ta'minot imkoniyatlari hamda talabalar bilimi darajasini nazorat qilishning reyting tizimi talablaridan kelib chiquvchi vazifalar ham yoritilishi lozim.

2. FAN DASTURI

"Chet mamlakatlar moliyasi" fani bo'yicha o'qiladigan mavzular:

Kursning predmeti va mazmuni

Chet mamlakatlar moliyasi fanining predmeti, vazifasi va tarkibi. Moliyaviy munosabatlarni o'zaro bog'liqlikda va aloqadorlikda o'rganish. Moliyaning ijtimoiy rivojlanish jarayoni bilan bog'liqligi. *"Chet mamlakatlar moliyasi" fanining boshqa*

fanlar bilan aloqasi. Yuqori darajadagi malakali kadrlar tayyorlashda, ilmiy va iqtisodiy fikr yuritishda "Chet mamlakatlar moliyasi" fanining roli hamda ahamiyati.

Rossiya moliya tizimining o'ziga xos xususiyatlari va moliyaviy islohotlar

Rossiya yalpi ichki mahsuloti va milliy boyligining bir qismining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishida davlat moliyasining roli. Davlat moliyasining zvenolari, ularning o'zaro bog'liqligi. Davlat moliyasining ijtimoiy ishlab chiqarishga ta'siri. Davlat daromadlari mazmuni. Rossiyada davlat daromadlarining shakllanish manbalari. Davlat xarajatlari, ularning tarkibi. Rossiya davlat byudjeti va byudjet qurilishi. Rossiya davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari, ularning tarkibi va turkumlanishi. Rossiyada byudjet jarayoni. Rossiya soliqlari. Rossiyada soliqqa tortishning o'ziga xos tomonlari. Rossiya soliq tizimi va soliq siyosati. Rossiyaning byudjetdan tashqari fondlari. Byudjetdan tashqari fondlarning moliya bozorida ishtiroki. Davlat kreditining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni. Davlat kreditining boshqa moliyaviy kategoriyalar bilan bog'liqligi. Rossiya Davlat zayomlarining guruhlanishi. Davlat krediti shakllari va turlari. Davlat qarzlari tartibga solish, uni amalga oshirish yo'llari. Davlat qarzlari boshqarish. Davlat qarzi bo'yicha foizlarni to'lash. Mahalliy moliya. Mahalliy moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati. Hududiy siyosatni olib borishda mahalliy moliyaning roli. Mahalliy moliyaning tarkibi va rivojlanish bosqichlari. Umumdavlat xarajatlarini moliyalashtirishda mahalliy moliyaning tutgan o'rni. Mahalliy byudjetlar – mahalliy moliya tizimida asosiy zvenodir. Mahalliy byudjet taqchilligi. Mahalliy byudjet daromadlari, ularning tarkibi va turkumi. Mahalliy soliqlar – daromadlarni jalb etishning asosiy usulidir. Mahalliy soliqlarning turlari, ularning mohiyati. Mahalliy byudjet daromadlarida egri soliqlarning tutgan o'rni. Mahalliy byudjet xarajatlari, ularning tarkibi va turkumi. Mahalliy hokimiyat organlarining zayomlari, ularning mohiyati va ahamiyati.

AQSh moliya tizimi

Iqtisodiyotni boshqarish jarayonida moliyadan asosiy vosita va qurol sifatida foydalanish imkoniyatlari. AQSh iqtisodiyotini tartibga solishda moliya. Ijtimoiy taraqqiyot jarayonlariga moliyaning ta'siri. Moliya tizimi mazmuni. Moliya tizimi bo'g'inlari: davlat byudjeti, mahalliy moliya, davlat korxonalar moliyasi, hukumatning maxsus fondlari. AQSh davlati daromadlari va xarajatlari tizimi. Davlat daromadlarining moddiy asoslari: yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, milliy boyluk. Mablag'lar jamlanishining moliyaviy shakllari. Asosiy daromad turlari: soliqlar, zayomlar, pul emissiyasi. Moliya tizimining zvenolari, daromadlari va hajaratlari.

AQShda moliyani boshqarish tizimi va byudjet jarayoni

Davlat moliyasining mazmuni. Davlat moliyasining zvenolari, ularning o'zaro bog'liqligi. Davlat byudjetining mohiyati va funktsiyalari. Davlat ijtimoiy siyosatini yuritishda davlat byudjetining roli. AQSh davlat byudjetining tarkibi. Byudjet taqchilligi. AQSh davlat byudjetining daromadlari. AQSh soliq tizimi. Federal soliqlar. Mahalliy boshqaruv organlari moliyasi. Mahalliy soliqlar. To'g'ri va egri soliqlar. AQSh davlat korxonalar moliyasi. Davlat korxonalar turlari. AQShda davlat kreditining xususiyatlari va shakllari. Ssuda kapitali bozorida davlatning roli. Hozir zamon davlat krediti turlari. Davlat krediti-davlatning takror ishlab chiqarish jarayoniga aralashuvining bir ko'rinishidir. Davlat kreditining soliqlar bilan aloqasi. Davlat zayomlarining turkumlanishi. Byudjet tizimi va byudjet jarayoni. Byudjet loyihasini tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash. Byudjetning bajarilishi, byudjet ijrosi bo'yicha hisobot va uning tasdiqlanilishi.

Angliya moliya tizimi

Angliya iqtisodiyotining rivojlanishida moliyaning roli. Moliya tizimi tushunchasi, moliya tizimining bo'g'inlari. Moliya bo'g'inlariga tavsif. Angliya davlatining daromadlari va xarajatlari tizimi. Davlat daromadlarining moddiy asoslari: yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, milliy boylik. Daromadlarning asosiy turlari. Angliya davlat xarajatlari, ularning tarkibi. Davlat xarajatlarining hususiyatlari.

Angliyada moliyani boshqarish tizimi va byudjet jarayoni

Davlat byudjetining mohiyati va funktsiyalari. Angliya ijtimoiy siyosatini yuritishda davlat byudjetining roli. Angliya davlat byudjeti daromadlari. Byudjet daromadlarining solikli va soliqsiz to'lovlari. Angliya soliq tizimi. Angliya davlat byudjeti xarajatlari. Xarajatlarning asosiy turlari. Byudjet jarayoni. Moliyaviy boshqarish va moliyaviy nazorat. Angliyada davlat krediti. Davlat krediti iqtisodiy va moliyaviy kategoriya sifatida. Angliyada davlat krediti munosabatlari, uni amalga oshirish tartibi. Davlat qarzi tushunchasi. Markaziy hukumat va mahalliy boshqaruv organlari qarzlarning dinamikasi. Davlat qimmatli qog'ozlar bozori. Angliyada davlat korporatsiyalari moliyasi. Davlat korporatsiyalari daromadlari va xarajatlari, ularni tarkibi, turkumi. Davlat korporatsiyalarining davlat va mahalliy byudjetlar bilan bog'liqligi.

Germaniya moliya tizimi

Germaniya iqtisodiyotining rivojlanishida moliyaning roli va ahamiyati. Germaniya moliya tizimi tushunchasi. Germaniya moliya tizimi va uning zvenolari. Moliya tizimi zvenolarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, ularning iqtisodiyot rivojlanishida tutgan o'рни. Germaniya davlat daromadlari va xarajatlari tizimi. Davlat daromadlarining

moddiy manbalari. Soliqlar-daromadlarning asosiy manbai ekanligi. *Davlat xarajatlarining mazmuni, xususiyatlari va tarkibi.*

Germaniya Markaziy bankining moliya tizimidagi o'рни

Davlat byudjetining mohiyati va funksiyalari, byudjetning roli. Byudjetni tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash. Byudjet ijrosi. Byudjet oshiqchaligi va taqchilligi. *Germaniya davlat byudjet daromadlari.* Byudjet daromadlarining solikli va soliqsiz to'lovlari. Hozirda soliq va soliqqa tortishning o'ziga xos tomonlari. Davlatning soliq siyosati. Soliqlar yordamida boshqarish. *Byudjetdan tashqari fondlar.* Byudjetdan tashqari fondlarning daromadlari va xarajatlari. Germaniya bank tizimi. *Germaniyada davlat korxonalarini moliyasi.* Davlat korxonalarini moliyasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va uning iqtisodiyot rivojlanishida tutgan o'рни. Moliya tizimida davlat korxonalarini moliyasining tutgan o'рни. *Davlat korporatsiyalari va ularga tavsif.*

Frantsiya moliya tizimi

Moliya tizimi tushunchasi. Frantsiya moliya tizimi va uning bo'g'inlari. Frantsiya moliya tizimi bo'g'inlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyati. Davlat xarajatlar tizimi. Xarajatlarning davlatning yuzaga kelishi va tabiati bilan bog'liqligi. Davlat daromadlari tizimi. Davlat daromadlarining moddiy manbalari. Mablag'larning vujudga kelishida moliyaviy usullar. Daromadlarning asosiy turlari.

Frantsiyada davlat byudjetining mohiyati. Davlat byudjetining funksiyalari. *Frantsiya davlat siyosatini yuritishda byudjetning roli.* Hozirgi bosqichda davlatning byudjet siyosati. *Frantsiya davlat byudjeti tarkibi.* Byudjet jarayoni va uning bosqichlari. Frantsiyaning soliq tizimi. Davlat kompaniyalari moliyasi. Mahalliy moliya. Regional siyosat olib borilishida mahalliy byudjetning roli.

Evropa sug'urta bozori

Evropa sug'urta bozorining tarkibiy tuzilishi. Sug'urta kompaniyalari. Evropa sug'urta bozorining jahon sug'urta bozoridagi o'рни. Sug'urta kompaniyalarining investitsiyalari. Eksportni sug'urtalash. Evropa sug'urta birlashmalari. Qayta sug'urtalash.

Yaponiya moliya tizimi

Yaponiyada davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini yuritishda moliyaning roli. *Yaponiya moliya tizimi va uning zvenolari.* Moliya tizimi zvenolariga tavsif. *Davlat daromadlari tizimi.* Mablag'larning vujudga kelishida moliyaviy usullar. *Davlat xarajatlari tizimi.* Xarajatlarning davlatning yuzaga kelishi va tabiati bilan bog'liqligi.

Yaponiya davlat byudjetining mohiyati. Yalpi ichki mahsulot qiymatini qayta taqsimlashda byudjetning roli. Byudjet davlatning iqtisodiyotga aralashuvidagi asosiy qurol hisoblanishi. *Yaponiya davlat byudjeti tarkibi.* Hozirgi bosqichda davlatning byudjet siyosati. Byudjet jarayoni va uning bosqichlari. Moliyaviy boshqarish. Yaponiya soliq tizimi. Soliqlarning davlat uchun ahamiyati. *Yaponiya soliq siyosati.* To'g'ri soliqlar va ularning turlari. To'g'ri soliqlarga tavsif. Egri soliqlar va ularning turlari. Egri soliqlarga tavsif. *Maxsus fondlar va maxsus schetlar.*

3. AMALIY VA SEMINAR MASHG'ULOTLARI, LABORATORIYA ISHLARI, CHIZMA-HISOB ISHLARI, KURS ISH (LOYIHA)LARI MAVZULARINING NAMUNAVIY RO'YXATI

Amaliy (seminar) mashg'ulotlari mavzulari ro'yxati

Kursning predmeti va mazmuni

Iqtisodiy fanlar tizimida moliya fanining tutgan o'rni. Kursning predmeti va vazifasi*. Moliya sohasi yo'nalishi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda "Chet mamlakatlar moliyasi" fanining roli*.

Rossiyada mikroiqtisodiy doirada moliyaning amal qilishi

Rossiyada faoliyatning turli sohalarida moliyaning amal qilishi*. Rossiyada tijorat faoliyati asosida ish yurituvchi korxonalar moliyasi. Notijorat asosda faoliyat yurituvchi tashkilotlar va muassasalar moliyasi. Rossiyaning jamoat tashkilotlari moliyasi*.

Rossiyada makroiqtisodiy doirada moliyaning amal qilishi

Davlat moliyasi. Davlat byudjeti. Byudjet qurilishi va byudjet* jarayoni. Byudjetdan tashqari fondlar*. Davlat krediti. Mahalliy moliya*.

AQSh moliya tizimi

Moliya tizimi mazmuni va tushunchasi*. Moliya tizimi zvenolari va ularga tavsif. AQSh davlat daromadlari va xarajatlari tizimi*.

AQSh moliyasini boshqarish va byudjet jarayoni

Davlat byudjetining mohiyati va funktsiyasi. AQSh davlat byudjetining tarkibi va turkumi*. AQSh byudjet jarayoni*. AQSh soliq tizimi. AQSh davlat korxonalari moliyasi*. AQShda davlat krediti.

Angliya moliya tizimi

Angliya iqtisodiyoti rivojlanishida moliyaning roli*. Angliya moliya tizimi*. Angliya moliya tizimi bo'g'inlari.

Angliya moliyasini boshqarish va byudjet jarayoni

Moliyaviy boshqarish va byudjet jarayoni*. Angliyaning davlat xarajatlari*. Angliya davlat korporatsiyalari moliyasi. Angliya Davlat krediti.

Germaniya moliya tizimi

Germaniya davlat moliyasining mazmuni*. Germaniya moliya tizimi bo'g'inlari va ularga tavsif*. Moliya tizimi bo'g'inlari daromadlari.

Germaniya byudjet jarayoni va moliyaviy boshqarish

Germaniya byudjet jarayoni*. Germaniya davlat byudjeti*. Germaniya soliq tizimi. Germaniya davlat korxonalar moliyasi.

Frantsiya moliya tizimi

Moliya tizimi tushunchasi va uning asosiy zvenolari*. Davlat daromadlari tizimi*. Davlat xarajatlari tizimi*. Byudjet jarayoni va moliyaviy boshqarish*. Davlat byudjeti va uning tarkibi. Frantsiya soliq tizimi*. Davlat korxonalar moliyasi*.

Evropa sug'urta bozori

Evropa sug'urta bozorining tarkibiy tuzilishi. Sug'urta kompaniyalari. Evropa sug'urta bozorining jahon sug'urta bozoridagi o'rni*. Sug'urta kompaniyalarining investitsiyalari. Eksportni sug'urtalash*.

Yaponiya moliya tizimi

Yaponiyada davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini yuritishda moliyani roli*. Yaponiya moliya tizimi va uning zvenolari*. Davlat daromadlari va xarajatlari tizimi*.

Yaponiya byudjet jarayoni va moliyaviy boshqarish

Yaponiya byudjet jarayoni*. Yaponiya davlat byudjeti*. Yaponiya soliq tizimi. Yaponiya maxsus fondlari.*

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI RO'YXATI

O'quv jarayonini tashkil etishda mavzularni ko'rgazmali vositalardan, slaydlar, diaproskop va jadvallardan foydalanish asosida o'rganish ko'zda tutilgan. Ayrim aniq masalalarni o'rganishda shaxsiy kompyuterlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Tahlillar, prognozli ko'rsatkichlarni hisoblash, diagrammalarni personal kompyuterda elektron tablitsalarda excel 7,0 paketi bilan ishlash asoslarini o'rganish.

Personal kompyuterda "pravo" tizimida ishlashni o'rganish va o'qish jarayonida undan foydalanish.

Case Studies: O'zbekiston Respublikasi makroiqtisodiy tahliliga doir o'quv misollari (rus tilida). Ochiq jamiyat instituti xomiyligida Iqtisodiy Markaz tomonidan tuzilgan.

Masofaviy o'qitish soatlari: WWW.google.ru (Budapesht, Evropa Markaziy Universiteti dasturlari); WWW.yandex.ru; WWW.rambler.ru; WWW.worldbank.org.ru; WWW.imf.org.

Kompakt disk: Sales information. International Monetary Fund – Publication Services; Exchange Rate Analysis with a Case Study on Poland.

Statistika to'plamlari: Sotsialno-ekonomicheskoe polojenie Respubliki Uzbekistan za 2000, 2001, 2002 g.

5. O'ZLASH TIRISH NAZORATI

Talabalarni fan bo'yicha o'zlashtirishlarini baholash semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi hamda quyidagi turlar joriy, oraliq va yakuniy baholash orqali amalga oshiriladi; joriy va oraliq baholash turiga ajratilgan ballar miqdori o'quv rejasida fanga ajratilgan soatning 70%, yakuniy baholashga esa 30% miqdorda belgilanadi. Joriy va oraliq baholash turlariga belgilangan ballar quyidagi holatlarda qo'yiladi:

- talabani o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- amaliy (seminar) mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi;
- fan bo'yicha asosiy manbalarni konspektlashtirishi;
- dolzarb mavzular bo'yicha referatlar yozishi;
- ilmiy tezislar tayyorlashi;
- mustaqil ta'lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarishi;
- fan bo'yicha ko'rgazmali qurollarni tayyorlashi.

Tayanch tushunchalariga asoslangan yozma ishni o'tkazish tartibi "Reyting tizimini yakuniy baholash bosqichida "Yozma ish" usulini tatbiq etish bo'yicha Namunaviy Nizom" bilan belgilanadi. Semestr davomida fanlar bo'yicha to'plagan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

- 86 - 100 foiz "a'lo";
- 71 - 85 foiz "yaxshi";
- 55 - 70 foiz "qoniqarli";

- 55 foizdan kam "qoniqarsiz".

6. ADABIYO TLAR

Asosiy adabiyotlar

1. Abramova A.M., Aleksandrova L.S. Finansi, denejnoe obrashchenie i kredit: Ucheb. pos. -M., 1999.
2. Avdokushin E.F. Mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. Ucheb. pos. -M.: 2001.
3. Dj. Menvil Xarris. Mejdunarodnie finansi. -M., 1996.
4. Drobozina L.A. Obschaya teoriya finansov. -M.: Banki i birji, 1999.
5. Ershov M.V. Valyutno-finansovie mexanizmi v sovremennom mire. -M.: OAO MPO, 2001.
6. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. Uch.pos. pod red. Akopovoy E.S. - M.: Feniks, 2001.
7. Mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. Uch. pod red. Liventseva N.N. - M.: Finansi i statistika, 2001.
8. Mejdunarodnie finansovie otnosheniya. Uch. pod red. akad. Senchagova A. G. -M.: Finansi i statistika, 2001.
9. Preobrazovanie finansovoy sistemi v Respublike Kazaxstan. Vashington-Almati-Manila, 1997.
10. Postnikov S.L. Mirovaya ekonomika i ekonomicheskoe polozhenie Rossii. Statisticheskii sbornik. -M.: Dialog, 2001.
11. Strigin A.V. Mirovaya ekonomika – M.: Ekzamen, 2001.
12. Sumarokov V.N. Gosudarstvennie finansi v sisteme makroekonomicheskogo regulirovaniya, -M.: Finansi i statistika, 1996.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Dj. K. Van Xorn, Osnovi upravleniya finansami, Pod red. prof. Sokolova Ya.V., -M.: Finansi i statistika, 1996.
2. Kovalev V.V., Finansoviy analiz - upravlenie kapitalom, vibor investitsiy, analiz otchetnosti. -M.: Finansi i statistika, 1996.
3. Kratko I.G. Mejdunarodnaya predprinimatelstvo. Ucheb. pos. -M.: 2001.
4. Kurochkin D.N. Evro - novaya valyuta Starogo Soveta. -M.: 2000.
5. Kutafin O.E., Fadeev V.I. Munitsipalnoe pravo Rossiyskoy Federatsii. -M.: Yurist, 1997.

6. Larionov I. K., O nekotorykh voprosakh sotsialno-ekonomicheskoy strategii i finansovoy politiki. "Finansi", 1997.
7. Livshits A.Ya., Osnovnie orientiri finansovoy politiki// "Finansi", 1997.
8. Lobodenko N. V., Audit i diagnostika bankrotstva// "Finansi", 1997.
9. Mirovaya ekonomika. Ekonomika zarubejnykh stran. Pod. red. prof. V.P. Kolesova i dr. –M.: Flinta, 2001.
10. Sumarokov V.N. Gosudarstvennie finansi v sisteme makroekonomicheskogo regulirovaniya, -M.: Finansi i statistika, 1996.